

# Xorazmda suv sifatini yaxshilash Loyihasi

Davlat: O'zbekiston

Loyiha tartib raqami: 49358

Biznes faoliyat turi: Shahar va atrof-muhit infratuzilmasi

E'lon turi: Ommaviy

Ekologik toifasi: B

Kuzatuv kengashiga taqdim etilish sanasi: 19 sentyabr, 2018 yil

Tasdiqdan o'tish bosqichi: Yakuniy tekshirishdan o'tdi, Kengash tomonidan tasdiqlanishi kutilmoqda

Loyihaning qisqacha mazmuni bo'yicha ingliz tilida xulosa chop etilgan sana: 13 iyul, 2018 yil

## Loyiha mazmuni

Bank, "Xorazm Suvoqava" Davlat unitar korxonasi ("Kompaniya") ning Ustuvor investitsiya dasturi ("UID") ni moliyalashtirish uchun Kompaniyani qayta kreditlash va/yoki unga berish maqsadida O'zbekiston Respublikasiga ("O'zR") 60 million AQSH dollari (50 million yevro) ga qadar bo'lgan miqdorda suveren qarz beradi. UID, Xorazm viloyatining suv va oqava suv infratuzilmasiga yangi suv inshootlari qurilishi va nasos stantsiyalarini, suv va oqava suvlarni tozalash inshootlarini yangilash, uy-ro'zg'or va ommaviy o'lchagichlarni o'rnatish kabi investitsiyalarni o'z ichiga oladi ("Loyiha"). Ushbu komponentlar suv sifatini yaxshilashga, xavfsiz ichimlik suvi va oqava suvlarni tozalash xizmatlarini ommalashtirishga qaratilgan.

## Loyiha maqsadi

Loyiha doirasida, oqava va ichimlik suv tarmoqlariga ulangan kishilar sonini 200 000 ga ko'paytirish, suv yo'qotishlarni kamaytirish va energiya samaradorligini oshirish va oqava suvlarning tozalanishi sifatini oshirish kutilmoqda.

## O'tish davri ta'siri

Yaxshi

O'tish davri ta'sirining manbalari quyidagilardir:

1) "Yashil".

Loyiha doirasida, oqava va ichimlik suv tarmoqlariga ulangan kishilar sonini ko'paytirish, suv yo'qotishlarni kamaytirish va energiya samaradorligini oshirish kutilmoqda. Loyiha ijobiy ekologik faoliyat sifatida baholanadi.

2) Mustahkam.

Loyihaning e'tibori Kompaniyaning xarajatlarini tiklash va uning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan moliyaviy va operatsion takomillashtirish masalalariga qaratilgan.

## **Mijoz haqida ma'lumot**

O'ZBEKISTON UCHUN SUVEREN

## **YTTBning moliyaviy mablag'i**

60 000 000,00 AQSH dollari

## **Loyihaning umumiy qiymati**

60 000 000,00 AQSH dollari

## **Ekologik va ijtimoiy xulosa**

Loyiha YTTBning 2014 yilgi Ekologik va ijtimoiy siyosatiga muvofiq "B" tasnifiga kiritildi. Loyiha bo'yicha tavsiya etilgan Ustuvor investitsiyalar dasturi (UID) uchun Ekologik va ijtimoiy ahamiyatga ega choralar (ESDD) Infratuzilmaviy loyiha tayyorlash mexanizmi (ILTM) doirasida jalb qilingan mustaqil maslahatchilar tomonidan Texnik-iqtisodiy asoslash (TIA)ning bir qismi sifatida amalga oshirildi. U joriy amaliyotlarni ko'rib chiqish, Loyihaning potentsial ekologik va ijtimoiy ta'sirini baholash va Kompaniyaning amaldagi ekologik va ijtimoiy qoidalari va boshqaruv imkoniyatlarini ko'rib chiqish kabilarni o'z ichiga olgan. Xorazm viloyati uchun bo'lgan UID doirasida milliy ichimlik va oqava suv sifati standartlariga, Yevropa Ittifoqining ichimlik suvi bo'yicha ko'rsatmasi va Shahar oqava suvni tozalash borasidagi ko'rsatmasiga va YTTB PRLariga muvofiqligiga erishish mo'ljallangan. UIDning barcha komponentlari kelgusida mahalliy ruxsat berish tartib-qoidalari va Atrof-muhitga bo'lgan ta'sirni baholash (OVOS) qonunlariga bo'ysunadi. Loyiha uchun Atrof-muhit va ijtimoiy tadbirlar rejasi (ESAP) ishlab chiqilgan va u Kengash tomonidan tasdiqlanishidan oldin alohida Loyiha kelishuvi doirasida Kompaniya bilan kelishib olinadi. Shuningdek, Manfaatdor tomonlarni jalb qilish rejaları (SEP) va texnik bo'lmagan xulosalar (NTS) ham ishlab chiqilgan va e'lon qilinadi.

Kompaniya mahalliy nazorat qiluvchi organlar tomonidan o'rnatilgan ekologik talablarga muvofiq tarzda faoliyat ko'rsatmoqda va ular ba'zan milliy qonunchilikdan farq qiladi. Kamchiliklar Atrof-muhit va ijtimoiy tadbirlar rejasi doirasidan joy olgan tuzatish choralari amalga oshirish orqali bartaraf qilinadi. Hozirgi vaqtda Xorazm viloyati aholisining 52 foizi markazlashtirilgan suv ta'minoti tizimiga ega bo'lib, suv, asosan, kuniga 8-10 soat davomida beriladi. Suv ikki yer usti suv inshootlaridan ajratiladi. Viloyat aholisining atigi 8 foizi markazlashtirilgan kanalizatsiya tizimiga

ulangan. Xorazm viloyatidagi ikkala tizim ham eski va juda yomon ahvolda bo'lib, natijada: xizmat ko'rsatish sifatining pastligi; suv yo'qotilishi; uchta OSTK sharoitlarining yomonlashganligi tufayli suvni tozalash jarayonining yo'qligi; nasos stantsiya xodimlarining mehnat sharoitlarining yomonlashganligi; avariya holatlarining ortib borishi kuzatilmoqda.

Talab qilingan tozalash darajasini ta'minlash maqsadida, loyiha doirasida kelayotgan oqava suvlarni ko'p bosqichli, mexanik va biologik tozalashni ta'minlash ko'zda tutilgan. Loyiha, shuningdek, loyining suvsizlanishi, tozalashdan keyin ishlovlar berishni va uni "pishitish"ni nazarda tutadi. OSTKlar salohiyatiga va sezgir retseptorlarning yo'qligiga asoslanib, ozuqalarni zararsizlantirish uchun bajariladigan uch bosqichli tozalash ishlari Yevropa Ittifoqining Shahar oqava suvni tozalash borasidagi ko'rsatmasiga muvofiq talab qilinmaydi. ESDD doirasida shunday hulosaga kelindiki, Loyiha yangi mijozlarni oqava suv tizimiga ulash, tizimga kiruvchi oqava suvlarning sifatini hisobga olish va nazorat qilish, oqava suvlarni (hozirda mavjud bo'lmagan) tozalash jarayonini takomillashtirish orqali atrof-muhit va suv ob'ektlariga bo'lgan sanitariya-epidemiologik xatarlarni va salbiy ta'sirlarni kamaytiradi. Mavjud OSTKni qayta ta'mir qilish, mehnat xavfsizligi borasidagi, shuningdek, suyuq xlardan foydalanish bilan bog'liq ekologik xavflarni kamayishiga olib keladi, bu esa kamida 150 000 kishini ulash imkonini beradi va ishonchlilikni oshiradi. Yer osti suvlari inshootlarini qurish uchun tegishli ruxsatnomalar kerak bo'ladi, lekin ular o'tmishda ishlatilgani uchun yer osti suvlari yaxshi o'rganilgan. UIDni amalga oshirish bilan bog'liq salbiy ekologik va ijtimoiy ta'sirlari chegaralangan, mahalliy va vaqtinchalik tusga ega bo'ladi va samarali qurilish amaliyotlariga rioya qilish yo'li bilan ularning oldini olish yoki kamaytirish mumkin.

TIA masalalari bo'yicha maslahatchi tomonidan amalga oshirilgan qiymat baholash borasidagi tadqiqot natijasida, Loyihaning amalga oshirilishi natijasida suv ta'minotini qiymatining sezilarli darajada oshishi kabi muammolar keltirib chiqarishi ehtimoli aniqlamadi. ESAP Kompaniyadan YTTBning PR-lariga mos keladigan bir qator takomillashtirishlarni amalga oshirishni talab qiladi. ESAP doirasidagi asosiy tadbirlarga quyidagilar kiradi: Kompaniyaning EMX salohiyati va EMX xavflarini hisobga oluvchi EMX qoidalarini ishlab chiqish imkonlarining oshishi; kadrlar bilan ishlash siyosatining ishlab chiqilishi; ishchilar shikoyatlarini xal qilish mexanizmini takomillashtirish; pudratchilarning Ekologiya va mehnat xavsizligi va mehnatni boshqarish dasturini ishlab chiqish; suv ta'minoti va oqava suvlarning sifati monitoringining yaxshilanishi; UIDni amalga oshiruvchi pudratchilar uchun Qurilishda atrof-muhitni va ijtimoiy masalalarni boshqarish bo'yicha rejasini ishlab chiqish; va Manfaatdor tomonlarni jalb qilish rejalarini aholining shikoyatlarini xal qilish mexanizmi bilan birgalikda amalga oshirish.

Bank, Kompaniyaning yillik Ekologik va ijtimoiy hisobotlarini ko'rib chiqish va kerak bo'lganda monitoring tashriflarini amalga oshirish orqali Loyiha va ESAPning amalga oshirilishini hamda kompaniyaning ekologik va ijtimoiy sohalaridagi faoliyatini nazorat qiladi.

## **Texnik hamkorlik**

Imzolashdan oldin:

- TH 1: Texnik, moliyaviy, ekologik va ijtimoiy ahamiyatga ega choralar. Vazifa qiymati 200 000 yevroga teng bo'lib, u Infratuzilmaviy loyiha tayyorlash mexanizmi (IPPF) doirasida moliyalashtirilgan edi.

Imzo qo'yilgandan so'ng:

- TH 2: Kompaniyani tashkiliy, operatsion va moliyaviy imkoniyatlarini yaxshilash uchun Korporativ rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash choralari. Belgilangan xarajatlar 200 000 yevro atrofida baholanmoqda, va ular xalqaro donor yoki YTTB Hissadorlarining maxsus jamg'armasi tomonidan moliyalashtiriladi.

## Kompaniyaga murojaat qilish uchun ma'lumot

Sevar Astanov

[info@mjko.uz](mailto:info@mjko.uz)

+99871 234-07-28

+99871 234-06-08

<http://mjko.uz>

Niyozbek Yuli ko'chasi, 1-uy, Toshkent shahri, 100035, O'zbekiston Respublikasi

## Biznes hamkorligi

Biznes hamkorligi yoki ta'minot masalalarida mijoz kompaniyaga murojaat qilishingiz mumkin.

Davlat sektori loyihalari uchun EBRD Procurement ga murojaat qiling: Tel: +44 20 7338 6794 Elektron pochta manzili: [procurement@ebrd.com](mailto:procurement@ebrd.com)

## Umumiy so'rovlar

Ta'minot masalalari bilan bog'liq bo'lmagan YTTB loyihalari bo'yicha ma'lumot uchun: Tel: +44 20 7338 7168 Elektron manzil: [projectenquiries@ebrd.com](mailto:projectenquiries@ebrd.com)

## Ma'lumotlarni oshkor etish

Ma'lumotlarni oshkor etish siyosati YTTB o'zining strategiyasi, ichki nizomlari va jarayonlari borasidagi ma'lumotlarni qanday oshkor etishi va tegishli manfaatdor tomonlar bilan YTTB qanday muloqot qilishi tartiblarini belgilaydi.

[Ma'lumotlarni oshkor etish nizomining matni](#)

## Shikoyatlar uchun murojaat qilish vositasi

[Project Complaint Mechanism](#) (PCM), ya'ni shikoyatlar uchun murojaat qilish vositasi YTTBning mas'uliyatni o'z bo'yniga olish vositasidir. Mazkur vosita jismoniy shaxlar va tashkilotlardan YTTB tomonidan moliyalashtirilgan loyihalar ekologik va/yoki ijtimoiy zarar yetkazgani bo'yicha da'volarni yoki yetkazishi mumkin holatlar bo'yicha shikoyatlarni xolisona ko'rib chiqish imkoniyatini yaratadi.

Shikoyat qilish uchun Project Complaint Mechanism sahifasiga tashrib buyuring. Sizning shikoyatlar yuzasidan mavjud har qanday savolingizga Shikoyatlar bilan ishlash bo'yicha

mas'ul mutaxassis ([pcm@ebrd.com](mailto:pcm@ebrd.com)) Shikoyatlar qilish tartibiga muvofiq (PCM Rules of Procedure) javob beradi.